Published on *Xalq Banki* (http://xb.uz)

# Horijiy kreditlar liniyasi

Yangilangan sana:Tue,Dekabr,11,2018

**Xalqaro qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti jamg‘armasi ishtirokida “O‘zbekiston Respublikasida sutchilik sohasida qo‘shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish” loyihasi doirasida taqdim etiligan kredit liniyasi to‘g‘risida**

| | |
|---|---|
| **Hududlar:** | Loyiha Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida amalga oshiriladi. |
| **Kredit maqsadi:** | 1-komponent. Dehqon xo‘jaliklari uchun – zotli qoramollar va uskunalar (ixcham sut sog‘ish apparati, don tegirmoni, yem tayyorlash uskunalari) sotib olish;<br><br>2-komponent. Fermer xo‘jaliklari uchun – yemxashak yig‘ish texnikalarini sotib olish (kombayn va boshqa turdagi yem-xashakni yig‘im-terimiga hamda uni qayta ishlashga mo‘ljallangan texnikalar), sut va sut mahsulotlarini tashish maxsus texnikalari, sovutish sig‘imlari, sog‘ish uskunalari, zotli chorva mollari va hokazolarni sotib olish;<br><br>3-komponent. Xizmat ko‘rsatuvchi va yetkazib beruvchi xususiy tashkilotlar uchun – Zootexnik va veterinariya xizmatlarini tashkil etish yoki modernizatsiyalash hamda yem-xashak yetishtirish va ishlab chiqarishning boshqa vositalarini sotib olish;<br><br>4-komponent. Sut mahsulotlarini qayta ishlovchi tashkilotlar uchun – texnologik uskunalarni sotib olish va modernizatsiyalash, sut mahsulotlarini qadoqlash liniyalari, sovutish kameralari, sut va sut mahsulotlarini tashish texnikalarini sotib olishga, aylanma mablag‘ni to‘ldirishga. |
| **Har bir komponent bo‘yicha ajratiladigan kreditning minimal va maksimal summasi** | 1-komponent – 10 000 AQSh dollargacha;<br>2-komponent – 100 000 AQSh dollargacha;<br>3-komponent – Zootexnik va veterinariya xizmatlarini tashkil etish uchun 10 000 AQSh dollargacha, yem-xashak yetishtirish va ishlab chiqarishning boshqa vositalarini sotib olish uchun 100 000 AQSh dollargacha;<br>4-komponent – 250 000 AQSh dollargacha; |
| **Mazkur kredit liniya hisobidan ajratiladigan kreditning masimal muddati** | Loyihani o‘zini qoplash muddatiga qarab – 5 yilgacha |
| **Loyiha bo‘yicha beriladigan imtiyozli davr** | 1 yilgacha |
| **Kredit foiz stavkasi:** | yillik 5,5% miqdorida |

| | |
|---|---|
| **Loyiha tashabbuskorini ulushi:** | Loyiha qiymatidan 25% dan kam boʻlmagan miqdorda |
| **Kreditni soʻndirish:** | Kredit va unga hisoblangan foizlar 1 yilda 2 marotaba soʻndiriladi (1 iyun va 1 dekabr). |

**Jahon bankining Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (MBRR) tomonidan taqdim etilgan “Oʻzbekiston Respublikasida chorvachilik sohasini rivojlantirish” loyihasi doirasida ajratilgan kredit liniyasining shartlari**

| | |
|---|---|
| **Hududlar:** | Loyiha Qoraqalpogʻiston Respublikasida va Oʻzbekiston Respublikasining barcha viloyatlarida amalga oshiriladi |
| **Kredit maqsadi:** | Oziq-ovqat sanoati uchun qishloq xoʻjaligi texnikalari va uskunalariga shuningdek, saqlash, qadoqlash, qishloq xoʻjaligi xizmatlari, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik va boshqa uzoq muddatli ishlab chiqarish aktivlariga investitsiya kiritish |
| **Kredit liniyasi summasi:** | 2.000.000,0 (ikki million) AQSh dollarigacha uzoq muddatli kreditlar va lizing operatsiyalari uchun (bir qarzdorga nisbatan)<br>150.000,0 (bir yuz ellik ming) AQSh dollarigacha qisqa muddatli aylanma mablagʻlarni toʻldirish uchun kreditlar. (bir qarzdorga nisbatan) |
| **Kreditlash muddati:** | Uzoq muddatli kreditlar va lizing operatsiyalari – loyihaning oʻzini qoplash muddatidan kelib chiqib<br>10 yillik muddatgacha 36 oygacha imtiyozi davr bilan;<br>Qisqa muddatli kreditlar – 18 oygacha, 9 oy muddatgacha imtiyozli davr bilan birga. |
| **Kredit foiz stavkasi:** | yillik 6,5% miqdorida |
| **Loyiha tashabbuskorini ulushi:** | Loyiha qiymatidan 25% dan kam boʻlmagan miqdorda |
| **Kreditni soʻndirish:** | Kredit va unga hisoblangan foizlar 1 yilda 2 marotaba soʻndiriladi (1 iyun va 1 dekabr) |

**Jahon bankining Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (MBRR) tomonidan taqdim etilgan “Oʻzbekiston Respublikasi hududida meva-sabzavotchilik sohasini rivojlantirish” loyihasi doirasida ajratilgan kredit liniyasining shartlari**

| | |
|---|---|
| **Hududlar:** | Loyiha Qoraqalpog‘iston Respublikasida va O‘zbekiston Respublikasining barcha viloyatlarida amalga oshiriladi |
| **Kredit maqsadi:** | Meva-sabzavotchilik va boshqa o‘simliklarni yetishtirish sohasidagi unumdorlikni va raqobatbardoshlikni oshirish, ozuqa xavfsizligi, yangi texnologiyalar xaridi va modernizatsiya faoliyatga amalga oshiriladigan investitsiyalarni keng ko‘lami. Xususan:<br><br>- meva-sabzavotchilik mahsulotlarini yetishtirish;<br><br>- issiqxonalarni tashkil qilish;<br><br>- meva-sabzavotchilik mahsulotlarini yetishtirish uchun qishloq xo‘jaligi texnikasini sotib olish;<br><br>- meva-sabzavotchilik mahsulotlarini qayta ishlash uskunalarni sotib olish;<br>- meva-sabzavotchilik mahsulotlarini sovutish va muzlatish uskunalarini sotib olish;<br><br>- meva-sabzavotchilik mahsulotlarini qadoqlash va saqlash uskunalarini sotib olish;<br><br>- lakritsa, shafran, kavrak, kapers va boshqa o‘simlik turlarini yetishtirish va qayta ishlash uchun amalga oshiriladigan investitsiyalar. |
| **Kredit liniyasi summasi:** | Kredit muddatlari kredit maqsadiga qarab hamda loyihani o‘z-o‘zini qoplash muddatlari inobatga olgan holda quyidagi muddatlardan oshmagan muddatlarga beriladi:<br><br>- investitsion loyihalarga – 2.000.000,0 (ikki million) AQSh dollarigacha, 10 yil muddatgacha, shu jumladan kredit qarzi to‘lovi bo‘yicha 36 oy muddatgacha imtiyozli davri bilan;<br><br>- meva-sabzavotchilik mahsulotlarini yetishtirish, ishlab chiqarish/qayta ishlash, sotish/eksport qilish bo‘yicha qo‘shilgan qiymat zanjirini to‘liq o‘z ichiga olgan klasterlarni investitsion loyihalarga – 4.000.000,0 (to‘rt million) AQSh dollarigacha, 10 yil muddatgacha, shu jumladan kredit qarzi to‘lovi bo‘yicha 36 oy muddatgacha imtiyozli davri bilan;<br><br>- Aylanma mablag‘larga – 200.000,0 (ikki yuz ming) AQSh dollarigacha, 18 oy muddatgacha, shu jumladan kredit qarzi to‘lovi bo‘yicha 9 oy muddatgacha imtiyozli davri bilan.<br><br>Kreditlash summasi 300.000,0 (uch yuz ming) AQSh dollaridan oshmagan kichik loyihalarni jami qiymatini kredit liniya summasini 10% dan oshmasligi hisobi olinadi. |
| **Kreditlash muddati:** | Uzoq muddatli kreditlar va lizing operatsiyalari – loyihaning o‘zini qoplash muddatidan kelib chiqib 10 yillik muddatgacha<br>36 oygacha imtiyozi davr bilan;<br>Qisqa muddatli kreditlar – 18 oygacha, 9 oy muddatgacha imtiyozli davr bilan birga. |
| **Kredit foiz stavkasi:** | 6 oylik LIBOR + o‘zgaruvchan spred + yillik 3% |
| **Loyiha tashabbuskorini ulushi:** | Loyiha qiymatidan 25% dan kam bo‘lmagan miqdorda |

| | |
|---|---|
| **Kreditni so‘ndirish:** | Kredit va unga hisoblangan foizlar 1 yilda 2 marotaba so‘ndiriladi (1 mart, 1 sentyabr) |